

*Jabborova Marifat, teacher,
Fergana State University,
Uzbekistan, Fergana city*

*Jabborova Ma'rifat, o'qituvchi,
Farg'ona davlat universiteti,
O'zbekiston, Farg'ona sh.*

JAMIYAT IJTIMOIIY TARAQQIYOTIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

ANNOTATSIYA: Innovatsion faoliyat ilm-fan va ishlab chiqarish sohalarini o'zaro birlashtirib, ularning salohiyatini oshirishga imkon beradi va yangilik sifatida amaliyotga joriy etilishi mumkin bo'lgan ilmiy kashfiyotlarni asosi hisoblanadi. Bunday mas'uliyatli vazifani mukammal darajada bajarish uchun esa milliy ilm-fanni hamda kadrlar tayyorlash tizimini jadal rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarning muhim jihatlari tadqiq etilgan.

KALIT SO'ZLAR: texnologiya, innovatsion texnologiya, modernizatsiya, ta'lim samaradorligi, jamiyat taraqqiyoti

O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgandir.

Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Tarix shundan dalolat berdiki, inson o'zining aql – zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o'lab topishdan, algaritm va nanozarralar, zamonaviy innovatsion kompyuter, quyosh va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi. Shu bilan bir qatorda ta'lim sohasi tizimiga, balki jamiyatning barcha sohalarining rivojiga o'zining ask ta'sirini ko'rsatadi. Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Innovatsiya – bu kalajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichk mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

Har qanday innovatsiyada “yangi”, “yangilik” tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, sub'yektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi.

Xususiy yangilik munosabat, ob'yekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi. Sub'yektiv yangilik ma'lum ob'ektning o'zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi.

Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi[1]da belgilangan “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan ta'lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni ta'minlash[2] kabi ustuvor vazifalari ta'lim muassasalarida o'qituvchilar innovatsion faoliyatini tashkil etish zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki kasbiy ta'limning xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash va ijtimoiy buyurtma asosida malakali kadrlarni tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va innovatsion faoliyatga tayyorlash amaliyotiga joriy qilish ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat

ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondoshuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondoshuvni qaror topishi asosida kechadi.

Ta'lim muassasida zamonaviy axborot texnologiyalari muhitini tashkil etish bosqichlari psixologik axborot muhitini yaratishdan boshlanadi. Texnologik va ilmiy natijalar, yaratilgan dasturiy mahsulotlar asosida zamonaviy vositalar va metodlardan foydalanishga ehtiyoj shakllantiriladi. Bunda har bir ta'lim muassasida individual va maslahat mashg'ulotlar asosida pedagoglarni musgaqil va komp'yuter ta'limi tizimini tashkil etish kerak.

Pedagoglarda innovatsion yondoshuvning qaror topishi ham murakab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi. Hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, shuningdek yoshlarimizni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashga juda katta e'tibor berilmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan, innovatsiya – bu yangilikning mazmuni va tatbiq etilishi deb qaralsa, u holda kiritilgan yangilik esa – bu faqat yangilikni ishlab chiqish kabi tushuniladi. Bundan novatsiya yoki ta'limdagi yangilik – innovatsiyaning yadrosidir, degan xulosaga keldik.

Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra, innovatsiya ijodiy faoliyat natijasi hisoblanadi, innovatsiyalarni u yoki bu ijtimoiy makonga joriy qilish jarayoni esa mohiyatiga ko'ra ijodiy faoliyatli hisoblanadi, chunki u mazkur borliqni o'zgartirishga yo'naltirilgan. Innovatsiya oddiygina joriy qilish emas, u ma'lum bir mazmunni bu mazmun bo'lmagan vaziyatga tatbiq etishni va yangi mazmunni yaratishni nazarda tutadi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq jarayon. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish – pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish “o'qituvchining innovatsion faoliyati” tushunchasi ham mavjud.

Innovatsiyalarning vujudga kelishi yoki qo'llanishi sohasida pedagogik jarayonning u yoki bu qismiga tegishliligi nuqtai-nazaridan quyidagicha amalga oshiriladi:

- ta'limni qo'llab-quvvatlash va maqsadlarida(o'quv rejalarini, dasturlarni o'zgartirish, yangi o'quv fanlarini kiritish integrativ kurslarni yaratish va boshqalar);
- ta'lim texnologiyalarida (texnologik yangiliklar);
- o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kun innovatsion texnologiyalarni ilm - fan va ta'lim sohasida muvaffaqiyatli qo'llanilsa, yangi yosh avlod ana shu jahon tajribasi asosida saboq olib, ulg'aysa, davlatimizning ertangi istiqbolli kelajagi yorqin bo'lishiga shak – shubha yo'q.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni // QHMMB: 06/17/5264/0339-son 01.12.2017 y.
3. Tolipov O'.K., M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2006.
4. Karimov, U., Kaxarov, S., Yokubjonov, S., & Ziyodov, D. (2018). USING NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN DISTANCE LEARNING SYSTEM. In *НОВАЯ ПРОМЫШЛЕННАЯ РЕВОЛЮЦИЯ В ЗЕРКАЛЕ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ* (pp. 9-11).
5. Abdurakhmonova, M. M., ugli Mirzayev, M. A., Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 384-388.

6. Karimov, U., & Abdurakhmon, A. (2017). INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. *Форум молодых ученых*, (5), 9-12.